


## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni-birlikda



- To'g'ridan to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
- Boshqarmaning elektron pochta orqali kelib tushgan murojaatlar
- Boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagi og'zaki murojaatlar


2023-yil yanvar-noyabr holatiga

Viloyat statistika boshqarmasiga 2023-yilning yanvar-noyabr holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan **100 ta** (o'tgan yilning shu davrida **101 ta**) murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning **85 tasi** to'g'ridan to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, **13 tasi** boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagi og'zaki murojaatlar, **2 tasi** boshqarmaning elektron orqali kelib tushgan murojaatlar hisoblanadi.

## Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

### Ulushi-foizda




Kelib tushgan murojaatlarning mazmun mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, 25 tasi (jamiga nisbatan 25,8 foiz) Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar taqdim etish yuzasidan, 5 tasi (5,4 foiz) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini taqdim etish yuzasidan, 1 tasi (1,1 foiz) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish yuzasidan, 23 tasi (24,7 foiz) topshirilgan hisobotidan nusxa so'rab hamda hisobotini qayta topshirish yuzasidan, 46 tasi (43,0 foiz) boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni tashkil qilgan.

- Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar berish
- Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish
- Statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish
- Topshirilgan hisobotidan ma'lumotlarni olish
- Boshqa murojaatlar

## Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


### Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga asosiy qismi Namangan shahridan **44** ta (o'tgan yilning shu davrida **43** ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Mingbuloq tumanidan **3** ta, Kosonsoy tumanidan **7** ta, Namangan tumanidan **4** ta, Norin tumanidan **5** ta, Pop tumanidan **2** ta, To'raqo'rg'on tumanidan **4** ta, Uychi tumanidan **11** ta, Uchqo'rg'on tumanidan **2** ta, Chortoq tumanidan **2** ta, Chust tumanidan **3** ta, Davlatobod tumanidan **7** ta, Yangi Namangan tumanidan **2** ta hamda boshqa viloyatlardan **2** ta murojaatlar kelib tushgan.


## Murojaatlarni ko'rib chiqish holati

Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning 86 tasiga chora ko'rildi, 14 tasi tushuntirildi, ko'rib chiqish jarayonida hamda rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

## Murojaatlar turlari bo'yicha




Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 30,0 foizi (30 ta) jismoniy shaxslar va 70,0 foizi (70 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

## **Eslatib o'tamiz:**

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xoxlaysizmi, quyidagi,

- 
- **Ishonch telefonlari**
  - (0369)227-85-06

- 
- **Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish**
  - (0369)227-85-08

- 
- Pochta manzili – [namstat@umail.uz](mailto:namstat@umail.uz) elektron manziliga murojaat etishingiz mumkin.

### **Namangan viloyati statistika boshqarmasi**

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi

Nashr uchun mas`ul:

E. Mamatqosimov  
(0369) 227-85-06